

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

2024/6-SON
ILLOVA TO'PLAM

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

С.Нематжан, О.А.Акбаров, З.Ш.Нуридинов	
Коммуникативные качества речи	742
М.Т.Абдуллатоев	
О'zbek tilining funksional sintaksisi masalalari	746
А.Р.Косимов	
Формирование компетенций в изучении русского языка	750
N.A.Quldashev	
Ijtimoiy muloqotda o'zbek tilidan foydalanimish	754
X.Sharifiddinov	
Aforizm – falsafiy mushohadalar ifodasi	757
А.Г.Мухиддинов	
Нейросемиотические механизмы идентификации новшества	760
M.A.Xusanova	
O'zbek tilshunosligida idiosistol antropotsentrik yondashuv mahsuli sifatida	765
E.I.Ibragimova	
Aksiologik bahoning uslubiy xususiyatlari	768
Z.M.Sobirova	
Neyropsixolinguistik konsepsiylar	771
G.Sh.Kaxxorova	
Til tizimida yordamchi so'zlarning o'rni va vazifalari	776



O'ZBEK TILSHUNOSLIGIDA IDIOSTIL ANTROPOTSENTRIK YONDASHUV MAHSULI SIFATIDA

ИДИОСТИЛЬ КАК ПРОДУКТ АНТРОПОЦЕНТРИЧЕСКОГО ПОДХОДА В УЗБЕКСКОЙ ЛИНГВИСТИКЕ

IDIOSTYLE AS A PRODUCT OF THE ANTHROPOCENTRIC APPROACH IN UZBEK LINGUISTICS

Xusanova Ma'rifat Ahmadjonovna 

Farg'ona davlat universiteti katta o'qituvchisi filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya

Ushbu maqolada o'zbek tilshunosligida poetik nutq masalasi, nutqda individual uslub va uning o'rganilishi to'g'risida fikr yuritilgan. Shuningdek, bu mavzudagi tadqiqotlarning mavzu ko'lami, idiosistol termini va poetik matn tadqiqiga bag'ishlangan ishlarning lingvopoetikada tutgan o'rni haqida mulohazalar keltirilgan.

Аннотация

В данной статье рассматривается вопрос поэтической речи в узбекском языкоznании, индивидуального стиля в речи и его изучения. Также представлены комментарии к объему исследований по данной теме, термину идиостиль и роли работ, посвященных изучению поэтического текста в лингвопоэзии.

Abstract

This article discusses the issue of poetic speech in Uzbek linguistics, individual style in speech and its study. Also, comments on the scope of research on this topic, the term idiosistol, and the role of works devoted to the study of poetic text in linguopoetics are presented.

Kalit so'zlar: stilistika, poetik nutq, individual uslub, idiosistol, lingvopoetika, lisoniy shaxs.

Ключевые слова: стилистика, поэтическая речь, индивидуальный стиль, идиостиль, лингвопоэтика, языковая личность.

Key words: stylistics, poetic speech, individual style, idiosistol, linguopoetics, linguistic personality.

KIRISH

Jahon tilshunosligida keyingi yillarda inson va olam munosabati, lisoniy shaxs ruhiyati, o'y kechinmalari, orzu-umidlarini ifodalashda til birliklarining rolini antroposentrik yo'naliishda tadqiq etishga e'tibor sezilarli darajada kuchaydi. Chunki inson o'zi mansub bo'lgan tilninggina emas, balki bir vaqtning o'zida ma'lum milliy-madaniy mentallik va vogelikni idrok qilishning individual usuli sohibi hamdir. Shunday ekan, tilda insonning mental, ichki dunyosi, aqliy saviyasi, lisoniy shaxs namoyon bo'ladi. Shu ma'noda keyingi yillarda dunyo tilshunosligida tilni nafaqat aloqa-aratlashuv vositasi sifatida o'rganish, balki ta'sir etish vositasi sifatida ham turli jihatdan o'rganish ommalashib bormoqda. Lisoniy birliklarning nafaqat kommunikatsiya jarayonidagi ishtiroki, balki ularning ma'lum bir vazifa uchun xoslanishi – funksionallashuvi masalalarini o'rganish kun tartibiga chiqmoqda. Nutq tarkibida qo'llanuvchi har bir birlikning inson ongiga ta'sir etish xususiyatlarini o'rganish dolzarb vazifalardan biriga aylanib ulgurdi. Bundan tashqari, til tadqiqiga antopotsentrik yondashuvning yuzaga kelishi natijasida nutqni aniq vogelik sifatida emas, balki inson tafakkuri mahsuli sifatida tadqiq etishga e'tibor kuchaydi. Natijada ilmiy tadqiqotlarda nutq egasi – til shaxsi markaziy tadqiqot obyekti sifatida e'tirof etila boshlandi. Shundan kelib chiqib, asar muallifining idiostili uning ruhiyati bilan chambarchas bog'liq. [1.7]. ekanligini isbotlandi. Shu jihatdan til birliklarining turli nutq ko'rinishlari va# sathlaridagi funksional-stilistik, lingvopoetik xususiyatlarini tadqiq etish muhim ahamiyat kasb etadi. Zero, adabiy tilning badiiy mukammallikka, milliy

xarakterlar yaratishdagi o'ziga xoslikka erishishida so'z san'atkorlarining mashaqqatli xizmatlarini alohida ta'kidlash lozim [5, 16].

Darhaqiqat, til shaxsi konsepsiysi o'zida tilshunoslik va psixologiya fanlari haqidagi bilim va tasavvurlarni umumlashtiradi. Til shaxsi nazariyasi til tashuvchisi va uning til xarakteri haqidagi ma'lumotlarni o'rganadi. Til shaxsini o'rganish jarayonida uning idostili va u yashagan yoki yashayotgan davr tilining imkoniyatlari oydinlashib boradi, shuning uchun ham buyuk ijodkorlar o'z davri tilini o'ziga xos takrorlanmas birliklar bilan boyitib borishga katta hissa qo'shadilar. Ijodkorning til shaxsi sifatidagi idostilini o'rganishning ahamiyati ham, aslida, shunda. Istalgan lisoniy shaxs – oddiy fuqaro, siyosiy arbob, rahbar yoki ijodkor tilini o'rganish ularning tildan foydalana olish va nutqi imkoniyatlari haqida, ularning shaxsiyati haqida ko'p ma'lumotlar beradi. [5,9]. Shu bois ham zamonaviy lingvistik tadqiqotlarda idostil tushunchasi keng qo'llanilmoqda va uni tadqiq etish kun tartibida dolzarb masalalardan biri sifatida qolmoqda.

Dunyo tilshunosligida til birliklarining xususiyatlarini muayyan matn doirasida tadqiq etish, uning kognitiv, pragmatik, psixolingvistik, lingvokulturologik, jihatlarini tahlil etishga qiziqish tobora ortib borayotgani, shu bilan birga poetik nutqni lingvopoetika muammolari doirasida o'rganish va talqin qilish tilshunoslikning markaziy masalalardan biriga aylanib ulgurganini ham ta'kidlash mumkin. Chunki poetik nutq emotsiyonalligi, ekspressivligi, obrazliligi bilan ajralib turadigan yuqori darajada shakllangan nutq ko'rinishi sifatida muallifning ichki his-tuyg'ularini o'ziga xos emosional-ekspressiv tarzda ifoda etish orqali adresatning tuyg'ulariga ta'sir etib, shuning barobarida aks etayotgan voqelikka tinglovchini muallif ko'zi bilan qarashga majbur qiladi. Ushbu jarayonni o'rganishga bo'lgan ehtiyoj lingvopoetikaga oid tadqiqotlarning nazariy jihatdan alohida ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatadi. Bu esa o'z navbatida tilshunoslar zimmasiga o'zbek tili bo'yicha olib borilayotgan tadqiqotlar doirasini yanada kengaytirish, jahon ilmiy-tadqiqot standartlariga mos ravishda o'zbek tilining keng ifoda imkoniyatlarini ko'rsatib berish vazifasini yuklaydi. Bunda tilimizning milliy ichki qurilishi, uslubiyoti, nutq madaniyati hamda ifoda imkoniyatlarini to'g'ri talqin etish, nutq bilan bog'liq muammolarni izchil tadqiqotlar doirasida o'rganish orqali uning nazariy jihatlarini to'liq asoslash maqsadga muvofiqdir. Ayni shu jabbada idostil va u bilan bog'liq masalalarini yoritishning dolzarbliji ham kun tartibidagi markaziy masala sifatida maydonga chiqadi. Darhaqiqat, "Til doirasidan tashqariga chiqmasdan, uning ijodkoriga e'tibor qaratmay turib, tilning asosiy tashuvchisi – inson omili bilan hisoblashmay til va uning tabiatini haqida aniq xulosalarga kelib bo'lmaydi", deb ta'kidlaydi Sh.Balli.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Lingvoetika masalalaridan biri hisoblangan ijodkorlar idostilini tadqiq etish, tilshunoslik va adabiyotshunoslik fanlarining kesishuvida yuzaga kelgani bilan qi-ziq. Tilshunoslik til vositalaridan foydalanishdagi o'ziga xosliklar tizimini tekshi-radi, lekin muallif idostilini o'rganish uchun buning o'zi kifoya qilmaydi. Sof lingvistik tahlildan tashqarida turuvchi asar kompozitsiyasi, syujeti, g'oyasi kabi masalalar ham borki, ular adabiyotshunoslik mezonlari asosida o'rganiladi. Tilshu-noslik, shuningdek, adabiy me'yorlar, asar muallifining bu me'yorlarga qay darajada amal qilishi yoki ularning ma'lum bir stilistik maqsadlar bilan buzilishi yoki o'zgartirilishi, uning muvaffaqiyatlari yoki muvaffaqiyatsizligi kabi bir qator muammolar, umuman, hozirgi adabiy til va muallif idostilining o'zaro munosabati masalalarini o'rganadi. Bu o'rinda Sh.Ballining "Stilistika – insonnинг o'zidir", degan fikrini eslab o'tish muhimdir.

Keyingi yillarda o'zbek tilshunosligida poetik nutq masalalariga bag'ishlangan ishlar sifatida M.Yo'ldoshev, I.Mirzayev, M.Yoqubbekova, S.Karimov, M.Abdupattoyev, D.Jamoliddinova, G.Muhammadjonova, M.Yo'ldoshev, E.Ibragimova, O.Mamaziyayev, D.Shodiyeva, S.Umirova, O.Tursunovalarning doktorlik va nomzodlik dissertasiyalarini ko'rsatib o'tish maqsadga muvofiqdir. Mazkur tadqiqot ishlarida, asosan, poetik nutqning fonetik, leksik va ayrim morfologik xususiyatlari, shuningdek, badiiy tasvir vositalari sifatida troplar va stilistik figuralarning o'ziga xos belgilariga urg'u berilgan.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

O'zbek tilshunosligida S.Umirovaning filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasini muallif idostilini o'rganishga qaratilgan ilk tadqiqotlardan biri sifatida ko'rsatib o'tish mumkin. U o'z dissertatsiyasida idostilni poetik individuallik atamasini ostida tadqiq etadi va "ijodkorning individual mahorati sabab, matnda qo'llanilgan har bir til materiali poetik birlikka va

TILSHUNOSLIK

faqat shu ijodkor uslubiga xos bo'lgan individual vositaga aylanishi mumkin. Lingvopoetik tadqiqotlar umumfilologik tadqiqotlarning o'ziga xos cho'qqisi hisoblanadi va uchun insoniy tuyg'ularning yuksak ifodasi bo'lgan tilning oliv maqomdagi imkoniyatlari kuzatish obyekti sifatida olinadi", deb ta'kidlaydi. Professor M.Abdupattoyev filologiya fanlari doktori (DSc) dissertasiyasida esa qator dunyo tilshunoslari fikriga tayangan holda idiostil terminini qo'llaydi va bu termin "ijodkor badiiy olamini yoritish uchun xizmat qiluvchi lisoniy usul va vositalarning murakkab tizimi" [3, 37] ekanligini aytib o'tadi hamda sintaktik aloqa va sintaktik vosita turlari poetik nutq tarkibida ham yuzaga chiqishini, poetik nutqning kompozision-sintaktik qurilishga ega ekanligi isbotlab, tarkibiy qismlarining funksional, semantik-sintaktik jihatdan tavsifi beradi.

XULOSA

Ta'kidlash mumkinki, poetik nutqning individual jihatlarini belgilash ma'lum bir ijodkor uslubidagi dominant, qoliplashgan lisoniy jihatlarning ma'lum bir turlarini aniqlash va uning tildagi ahamiyatini belgilashga imkon beradi. Muallif ijodining takomillashib borishida yoki ma'lum bir ijod bosqichlarida ularda kuzatiladigan shakli va mazmuniy o'zgarishlar idiostilni yaratishga asos bo'ladi. Barcha sath birliklarining vazifaviy imkoniyatlari muallif tomonidan lisoniy birlikka qanday vazifa yuklanganligi va bu vazifa qay darajada muvaffaqiyatli yoki muvaffaqiyatsiz amalga oshirilgani bilan baholanadi. Bu bevosita lisoniy shaxsning qay darajada shakllanganligi, tafakkur olami va so'z boyligi bilan o'lchanadi. Lingvopoetika shu mezonlar asosida shakllangan idiostilning o'rni va ahamiyatini belgilab beradi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Абдурахмонов У., Маҳмудов Н. Сўз эстетикаси. Тошкент. Фан, 1983. 48 б.
2. Абдуллаев А. Ўзбек тилида экспрессивлик ифодалашнинг синтактик усули. Тошкент. Фан, 1987.
3. Абдулпаттоев М. Ўзбек тилининг поэтик синтаксиси. Филол. фан. д-ри. дисс. – Фарғона: Фарғона, 2021. – 226 б.
4. Болотнова Н. С. Изучение идиостиля в современной коммуникативной стилистике художественного средства. М., 2004. С.37
5. Умирова С. Ўзбек шеъриятида лингвистик воситалар ва поэтик индивидуаллик (Усмон Азим шеърияти мисолида): Фил. фанл. б. фал. док. (PhD) дисс. авторед. –Самарқанд, 2019. – 124 б.
6. Xusanova, M.A. The use of archaism in the works of Farida Afroz. International Scientific Journal ISJ Theoretical & Applied Science Philadelphia, USA issue 04, volume 96 published April 20, 2021. Soi: <http://s-o-i.org/1.1TAS-04-96-51> Doi <https://dx.doi.org/10.15863/TAS> Scopus ASCC:1208.
7. Xusanova, M.A. The use of expressive phonetic means in farida afroz's works. International Scientific Journal ISJ Theoretical & Applied Science Philadelphia, USA issue 09, volume 101, published September 28, 2021. Soi: <http://s-o-i.org/1.1TAS-09-101-81> Doi <https://dx.doi.org/10.15863/TAS> Scopus ASCC:1200.